



UDK:811.521

*Olimjon JUMABOYEV,*  
*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*  
*olimjon.jumaboyev@mail.ru*

*филология фанлари бўйича фалсафа доктори Р.Муллахўжаева тақризи остида*

### RAMZ VA MAJOZ:RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA QONUNIYATLARI

Аннотация

Maqolada zamonaviy o‘zbek nasrida ramz va majoz tushunchasining paydo bo‘lishi, ularning jahon adabiyotining yangi yo‘nalish va uslublaridan o‘zlashtirilishi, tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, uning o‘zbek mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi namunalariidagi o‘rni tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Asar, hikoya, mif, tadqiqot, zamonaviy o‘zbek nasri, mumtoz adabiyot, ramz, metafora, zamonaviy adabiyot, adabiy vosita.

### СИМВОЛ И МЕТАФОРА:ТЕНДЕНЦИИ И ЗАКОНЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье описывается возникновение понятия символа и метафоры в современной узбекской прозе, их заимствование из новых направлений и стилей мировой литературы, а также их изучение исследователями. Также будет изучена его роль в узбекской классической литературе и образцы народного устного творчества.

**Ключевые слова:** Творчество, рассказ, миф, исследование, современная узбекская проза, классическая литература, символ, метафора, современная литература, литературный инструмент.

### SYMBOL AND METAPHOR:DEVELOPMENT TENDENCIES AND LAWS

Annotation

The article describes the emergence of the concept of symbol and metaphor in modern Uzbek prose, their adoption from new directions and styles of world literature, and their study by researchers. Also, its role in Uzbek classical literature and examples of folk oral creativity will be studied.

**Key words:** Creation, story, myth, research, modern Uzbek prose, classic literature, symbol, metaphor, modern literature, literary tool.

**Kirish.** Adib asarda eng birinchi navbatda, auditoriya bilan hisoblashishi, uning talabi, vaqti, imkoniyati, did va saviyasiga bilan doimo birga yashashi, hisoblashishi shart. Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Matyoqub Qo‘shjonov ta’kidlaganidek “...bugungi kitobxonning darajasi ana yuqori, qilni qirg ayiradigan, professordan ham xato izlaydigan kitobxon. Uning saviyasi bilan hisoblashmaslik, hayot talabi va ijod mas’uliyatini unutishdir”[1].

Bugungi auditoriyaning talabi juda katta va konkret bo‘lgani holda ortiqcha izoh va uzundan uzoq bayonni yoqtirmaydi. Birinchi galda, auditoriyani o‘ylash va tafakkur qilishga undash, noodatiy adabiy priyomlardan foydalanish, fikrni uzoq sudramay konkret aytish, ayrim belgi va kodlar orqali xulosani o‘quvchi o‘ziga qoldirish kabilar shular jumlasidandir. Albatta, auditoriyani umumiy bog‘lab turadigan unsurlar – kodlar, shifrlar, sirlar, murakkab detallar kerak. Buning uchun esa yozuvchidan katta fundamental bilim, tafakkur va dunyoqarash talab etiladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining bugungi kundagi yetuk vakillari ijodida esa mana shunday ijodiy yo‘ldan borib, o‘ziga xos badiiy pishiq asarlar yaratilayotgani tadqiqotlar oldiga murakkabliklar qo‘ymoqda. Ayniqsa, ramzlar, metaforalar, xilma-xil mifologik obrazlar zamonaviy adabiyotimiz rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ramz(arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan[2]. Bizning nazarimizda (Ramz – tagma’noga va obrazli ma’noga ega voqealik, narsa, detaldir. Ta’kid bizniki – O.J) ramz ana shunday ko‘lam va tagma’noga ega adabiy

hodisadir. Majoz istilohi ham ramzga yaqin hisoblansa-da, ammo ikkisi bo‘lak-bo‘lak tushunchalardir.

Majoz(arab. – o‘tish joyi; boshqacha aytish, nomlash; tasviriy ifoda) adabiyotda so‘z yoki iboraning o‘z ma’nosidan boshqa, ko‘chma ma’noda ishlatilishi va shu ma’noda ishlatilgan so‘z, ibora; metafora, allegoriya[3].

Eng muhimi esa, majozda ikki tushuncha orasidagi o‘zaro yaqinlikka tayanilib, ma’lum xulosaga kelinadi – majoz yaratiladi. Majoz o‘rnida tipik hodisalar, obrazlar, xarakterlar, hatto mifologik obrazlar, shaxslar va prototiplar ham bo‘lishi mumkin.

Rus olimi Jirmunskiy majoz haqidagi o‘z tadqiqotlarida “Metafora – voqelikni romantik usulda qayta yaratishdir”[4], deb qayt etib o‘tadi. Qayta yaratish esa qayta kashf qilish, uning badiiy qiymatini oshirish, qo‘shimcha ma’no yuklash ham demakdir.

Majozning muhim xususiyati, asarda ramzdan farqli ravishda majozda ko‘z oldingizda faqatgina bir xarakter, narsa va voqea namoyon bo‘ladi.

Aristotel esa majozga juda yuksak baho berib, uni yaratish san’atkorga xos ekanini, buni o‘zlashtirish va ko‘chirish mumkin emasligini ta’kidlaydi: “...faqat shuningina o‘zgalardan o‘zlashtirib bo‘lmaydi, bu qobiliyat iste’dodning belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish, qiyosiylikni ko‘rish ham demakdir”[5]. Qadimgi yunon faylasufi va olimning fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, g‘oya va majoz o‘zaro sinkretik holda juda katta adabiy va psixologik ta’sir qudratiga ega hisoblanadi.

Har bir xalq adabiyoti o‘z yo‘lini yaratishda bevosita xalq fol’kloridan oziqlanadi. Matallar, masallar, rivoyat, hikoyat, ertak va dostonlar o‘z navbatida, yangi adabiy

asarlarning yaratilishiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Tulki – ayyorlik, bo'ri – ochko'zlik, qo'y – yuvoshlik, hokisorlik ramzi sifatida talqin etilib, bu jarayon o'ziga xos ramziy-majoziy sistemani hosil qilgan.

Albatta, o'zak ma'nosida turli xalqlar tomonidan ramz istilohi turlicha talqin etilsa-da, umumiy ma'no nuqtai nazaridan bir xildir.

Xususan, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida qayd etilishicha, ramz – (simvol) grekcha “symbolon” so'zidan olingan... “Bunda (Ramzda ta'kid bizniki) sodir bo'layotgan voqea-hodisaning (harakatning), uning karkasini aks ettiruvchi asosi ajraladi. Ijodkor an'anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detaldan ramziy tasvir uchun foydalanadi. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi[6].

Yuqoridagi bir jumladan “qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olish uchun qo'llanilgan shartli belgini anglatgan”i to'g'risida qayd bizni bir qadar chuqurroq o'ylashga undaydi. Dastlab mif, asotir va ertaklar ichida taraqqiy etib kelgan ramz va majoz tushunchasi aytasekinlik bilan poeziya va prozada o'zining barcha elementlarini ko'rsatib yashay boshlagan. Bu davrda ayniqsa, mumtoz adabiyot gullab-yashnagan, saroy ahli orasida adabiy muhit jadal rivojlanayotgan davrlar bo'lgani bois she'riy parchalarda turli badiiy bo'yoqdor obrazlar — ramz va majoziy obrazlar odamlar ongiga singib boradi.

Har bir detal ma'lum tarixiy rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan bo'lib, bugungi kungacha ularning talqinida rivojlanish va kengayish kuzatiladi.

Mashhur nemis olimi E. Kassirer o'zining metafora haqida olib borgan tadqiqotlarida mif va san'at, so'zning genezisini bitta o'zakka, ya'ni ruhga bevosita bog'laydi.

Faylasufning fikriga ko'ra, poeziyada — obrazli so'z saqlanibgina qolmay, balki unda obrazlilik muttasil yangilanib turadi. U (majoz) poeziyaning qadimgi ildizi — mif bilan rishtalarni uzmagani va aksincha, uning eng sara namunalari mif bilan doimiy aloqada bo'lib, uning mohiyatida olamga mifologik nazar tashlash qayta tug'iladi[7].

Haqiqatan, mifologik tafakkur barcha xalqlarning qadimiy asarlarida mavjud bo'lib, garchi ular turli xalqlarga tegishli bo'lsa-da, yagona tugal mazmun-mohiyatga ega. Ya'ni ilk odamlar ta'biricha, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik ma'lum hayotiy detallar asosiga qurilgan.

Ramziylik va majoziylik asarlarda nega qo'llanilgan degan tabiiy savol tug'ilishi tayin. Badiiy shartlilik bo'yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim Marhabo Qo'chqorova avvalo, neomifologik obrazlarning badiiy adabiyotda aks ettirilishi zamon va davr talabi sifatida tadqiq etadi. Ya'ni mamlakatdagi siyosiy muhit ijodkorlarning eminerkin ijod qilishi, ijtimoiy-siyosiy mavzularda qalam tebratishi, jamiyatdagi qing'irliklar, munofiqlik va illatlarni bor-boricha tasvirlashi oson emas edi. Ayniqsa, g'araz va o'g'irliklar, g'irromlik va g'ayurliklar ma'lum guruh yoki to'dalarga xos bo'lsa, bu haqda aytish tuhmat va bo'hton sifatida ko'rilganiga ham tarix guvoh bo'lib turibdi. Shu bois odamlar fe'lidagi nuqson va qusurlar mumtoz adabiyotimizning yetuk vakillari ijodida ramziy-majoziy obrazlar timsolida aks etib qoldi.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda ishlatilgan ramzlar, ramziy tasvirlar hech qayoqqa yo'qolib ketmadi. Ular xalqning tafakkurida yashab, muayyan ko'rinishda “hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda”[8].

O'zbek xalq ertaklari, xususan, o'zbek folklorini ramz va metaforalarsiz tasavvur etish mushkul. Ertaklar, matallar, dostonlar zamirida deyarli didaktik ruh ustun bo'lgani uchun ularning barchasi ramz va majoz bilan boyitilgan. Xususan, “O'g'ri va To'g'ri”, “Qorasoch pari”, “Oltin baliq”, “Tulki va

turna”, “Bo'ri bilan tulki”, “Podsho va chumoli”[9] singari minglab asarlar mohiyatan ramziy hikoyalar sanaladi.

Xususan, “Bo'ri bilan Tulki” ertagining ramziy-majoziy jihatlari ularning do'st tutinishi, ikkisi ovga chiqib, qorin to'ydirishi, tulkinging quvligi, ayyorligi va bo'ringing nafs orqasidan quvib oxiri, sharmandalikka duchor bo'lishi, kaltak yeb o'lishi ana shunday toifadagi odamlarga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Hayotning barcha ijtimoiy adolatsizligiyu odamlarning ochko'zligi aksi hisoblangan ushbu ertak shaxs va jamiyatga qaratilgani ishora-imolar vositasida yanada yaqqol ko'rinadi.

Ertakdagi barcha obrazlar majoziy ma'noda olingan: xo'roz, qo'zi, xachir, ot, ovchi, qo'y. Ularning “gap-so'zlari”, xatti-harakatlari, ijtimoiy vazifasiga qarab umumiy ma'no uqish mumkin. Xalq og'zaki ijodi bilan to'yingan ramziylik va majoziylik mumtoz adabiyotimizda qayta tug'ildi, desak adashmaymiz. Mazkur adabiy jarayonda xalqning badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan ramzlar turli mumtoz shoirlarimiz vositasida yozma shaklga ko'cha boshladi.

Ramziy-majoziy unsurlardan foydalanish borasida Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy singari mumtoz shoirlar har so'zni ramz vositasi sifatida talqin etib, qo'llashgan.

Olamni intiutiv kuzatadigan har bir ijodkor borki, so'z qa'tidan ma'no izlashga tutinadi. “Ramz va majoz esa ijodkorona yondashuvsiz va so'z san'atisiz yaralmaydi”[10], deydi adabiyotshunos olim Nafas Shodmonov. Shu bois adabiyotshunos olimlar ramzni doimo matnning kaliti sifatida ko'rishni uning boshqa badiiylik moduslaridan farqini belgilaydi.

Estetik idrok etish, borliq, atrof-muhit, tabiatdagi voqea va narsalarni ma'lum detallarga bog'lab, tafakkur qilish, ularda o'ziga xos ma'no ko'rish va buni ongli ravishda o'quvchiga singdirish shoirlarning doimiy diqqat markazida bo'lgan.

Xususan, “Yaqiniy “O'q va Yoy” munozarasida “O'qni to'g'irlik, Yoyni egrilik simvoli darajasiga ko'taradi”[11], mohiyatan esa uning zamirida jamiyatdagi turli xil illatlar, ta'magirlik, nafs, bironing haqqini yeyish, ochko'zlik va kaltabinlik ustidan kuladi. Ularning xatti-harakatlari, amallari va niyatlari “O'q”ning bir maqsad sari dadil borishi, “Yoy”ning qaysi tomonga bursa, egilishi, ya'ni tabiatiga muvofiq xarakterlanib, turlanishi uning maqsad-vazifasi sifatida ko'rsatiladi.

Yaqiniyning zamondosh Yusuf Amiriy esa “Chog'ir va bang” munozarasida ham zamonning illatlarini fosh etib, bangi kishilarning holatini ochib beradi. O'sha davrda odat tusiga kirgan bang, chilim chekishning inson umri va jamiyatdagi qusurlarning ko'payishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Nishopiy “Boz va bulbul”, “Binafsha va gang” singari munozaralarini ham bevosita ramzlar orqali shoirming qalb kechinmalari, o'y-xayollari, jamiyatdagi qusurlar qalamga olinadi. Ahmadiyning “Sozlar munozarasi”da amal talashish, fisqu fasod, bo'htonu tuhmatlar o'ziga xos ramziy sistema orqali bayon etiladi.

“Ahli tariqatmu sen, ey be xirad,  
Boshdin-oyog'ing to'la nafsu hisad.

Lek haqiqatda seningdek lavand,  
Qayda yetar, tek tur, ayo, xu pisand”[12].

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asari, turkiy adabiyotning nodir namunasi, 1069-70-yillarda yaratilgan bo'lib, uning tezda turli xalqlar adabiyotiga kirib borishida ramziy ma'no kasb etgani, adabiy-didaktik xarakterga ega ekani muhim sanalgan. “Pandnoma”larga xos didaktika eshitiladi, goh sahro qo'shiqlarining aks sadosi quloqqa chalinadi, goh so'fiylarning mistik simbolikasi seziladi”[13],

deya ta'kidlaydi tadqiqotchi Klyashtorniy. Simvolika deb atalgan istiloh bu o'rinda ramziylikni anglatib kelayotganini ta'kidlash kerak.

Asar boshdan-oyoq ramzlar vositasiga qurilgan. «Qutadg'u bilig» markaziga 4 masala qo'yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi – adolat bo'lib, u podshoh Kuntug'di timsolida, ikkinchisi – davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi – aql bo'lib, vazirning o'g'li O'g'dilmish, to'rtinchisi – qanoat bo'lib, uning qarindoshi O'zg'urmish qiyofasida tasvirlanadi.

Ta'kidlaganimizdek, asarning har bir jumlasidan ramziy-majoziy timsollar o'quvchining ongiga ta'sir etib, chuqurroq firklarashga undaydi.

“Tuman yildan beri ma'yus tul edim, endi bu tullik kiyimini yechib, oq libos kiydim”[14].

Ko'rinib turibdiki, tullik libosi – qora. U qora libosni yechib, oq kiyim kiyishi uning ro'zg'ori o'nglanganigi, baxt va baxtiyorlik belgisi hisoblanadi. Yana shu o'rinda “tuman yil” ishorasiga ham to'xtalib o'tish zarurki, bunda uning nursiz va xira o'tmishi, baxtsiz yillari o'xshatishlar asosida berib ketilmoqda.

Shu bois “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati”da keltirilishicha, “Ramz badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi”[15]. Yuqoridagi “tuman yil” ham umumiy ildizda so'zlar birikmasi bo'lib, bir tushunchaning badiiy ko'lamini kengaytirgan.

Shubhasiz, ramzni yaratuvchi so'zning ma'no diapazoni kengayadi, u nafaqat ifoda nuqtai nazaridan go'zal, shuning barobarida ongli ravishda tushunish jihatidan ham betakroridir. Endi ramz oddiy so'z emas, balki badiiyat yukini olgan so'zga aylanadi. Serjilva so'z ham biz aytayotgan ramzning aynan o'zidir.

Mumtoz adabiyotimizda ramzni san'at darajasida ishlatib, o'ziga xos she'ru g'azallar yozgan, ma'no ko'chimlarida turli obrazlar yaratib, ramz va majozga tagma'no bergan Navoiy bo'lsa, uning har bir baytida olimlar aniqlamagan minglab jilvalar bor.

“Faqr aro bir ranglik dushvor erur behad, valek,  
Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig', yashil.

Ey Navoiy oltinu shingarfu zangor istama,  
Bo'ldi nazming rangiday devon, qizil, sorig', yashil”  
[16].

Alisher Navoiy ijodi natijasida o'zining yangi davrini boshlab bergan ramz va majoz keyingi davrlar — Bobur, Maxmur, Nodira, Uvaysiz, Muqumiy, Furqat g'azallari va she'riyati ham o'ziga xos o'rin tutdi. Vaholongki, o'z davrining eng ma'rifatparvar va ziyoli qatlami hisoblangan shoiru ayonlar ham aynan ramz va majoz zamiridagi

qatma'noni tushuna borgani holda o'sha davrlarda o'tkaziladigan “mushoira” va “doston kechalari”da oddiy xalqqa tushuntirib, ma'no qulfini ochib, ramzning asosiy mazmunini aytib berishgan.

Navoiyshunos olimi Karomat Mullaxo'jayevaning ta'kidlashicha, “Ranglar ham har bir ijodkorning fikrlash doirasi va darajasiga muvofiq qo'llanib kelingan. Shu sababli ham soddaroq asarlarda ranglarning ramziylik darajasi osonroq tushuniladi” [17].

Adabiyotimizning har bir davrida ramz va majoz o'zining ildizlari — mif va asotirlar, folklor va totemistik tushunchalardan yiroqlashib ketmagani holda u bilan doimiy aloqada bo'lib turgan. Uning mazmun-mohiyatidan oziqlanib, tagidan suv ichib turgan. Shu bois ham ramz va majoziy tushunchalar umumo'quvchi uchun tushunarli va ta'sirli bo'lgan.

Ramziy va majoz ma'nosi predmet ma'nosidan ancha yuqorida turadi, u voqealilikni estetik idrok etish mevasi bo'lib, maqsadli imo-ishorani talab qiladi.

Dunyoni mifologik tushunish va tadqiq etish natijasida bugungi kunda ham ba'zi udum va an'analar, tushunchalar zamirida saqlanib kelmoqda. Mifologik tushunchalar dastlabki didaktik asar-manbalar sifatida odamlar ongida saqlanib qoldi va keyinchalik insonlarning ongu tasavvurida, tafakkurida yashab, og'zaki adabiyotidan yozma adabiyotiga voqea, narsa va detal ko'rinishidagi ramziy vositalar ko'rinishida namoyon bo'lib bordi.

Bugungi kungacha saqlanib kelayotgan ramziy-majoziy tushuncha, narsa, istilohlar adabiy jarayon va xalqqa yaqin tilda ijod qilgan shoirlarning alohida o'rnini ta'kidlab o'tish zarur.

Albatta, biz nafaqat asar qatidagi ma'no haqida gapiramiz. Uni yaratish, uni yaratuvchi haqida esa batafsil to'xtalmaymiz. Mumtoz adabiyotimizda, nafaqat asarlarda, shuning barobarida shoirlarning taxallusini tanlash, ularni ijodiy ilhomlashtirish yo'lida ham ma'lum ramziy vositalarga tayanilgan.

Tadqiqotchi Feruza Burxonovaning ta'kidlashicha, “Sharq dunyosi ijodni ilohiy mo'jiza deb tushunadi va tushuntiradi. Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sakkoki, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boborahim Mashrab kabi mumtoz shoirlarimiz ijodida bu fikrlar ramz-majozlarga o'rab tasvirlangan”[18].

An'anaviy ramziy-majoziy detal va unsurlardan foydalanish adabiyotimizning eng yuqori darajalarida ijod qilgan shoirlarga tegishli ekanini, ular aynan ramziy-majoziy birliklar, tushunchalar orqali o'quvchi qalbiga yo'l topganini, ijodiy jarayonda individual qobiliyati natijasida paydo bo'lgan obrazlar asrlar davomida yashab qolganini anglaymiz. Bugungi kunda ham adabiyotimizda Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi, Bahodir Qobul singari adiblarimiz undan unumli foydalanmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Qo'shjonov. M. Ijod mas'uliyati. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981. B – 237.
2. “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. - Toshkent.: 2004, 247-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II-jild. “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 523-bet.
4. Jirmunskiy V.M. Vvedenie v literaturovedenie. Kurs lektsiy. – M.: Yeditorial URSS, 2004. – S. 335.
5. Аристотел. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С.. 173.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –T.: 2004. 7 tom. – B. 247.
7. Кассирер Э. Сила метафоры//Теория метафоры. – С. 41.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –T.: 2004. 7 tom. – B. 247.
9. ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/page/3/
10. Shodmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: Tafakkur, 2020. 47-bet.
11. O'zbek adabiyoti bo'stoni/ Muborak maktublar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – T.: 1987, 247-bet.
12. O'zbek adabiyoti bo'stoni/ Muborak maktublar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – T.: 1987, 269-bet.

13. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: Fan, 1971. B - 73.
14. Кляшторний С.Г. Эпоха "Кутадгу билиг" // СТ. 1970. №4. – С. 82.
15. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1983. – B. 279.
16. Alisher Navoiy. Qaro ko'zim. -T.: Adabiyot, 2021, 46-bet.
17. Mullaxo'jayeva K. G'azalda rang jilosi. Filologiya masalalari. 2003-yil. 3-4-son.
18. Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm. (Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam ijodi misolida): Fal dok()... dis – T., 2019, 17-bet.